
Tashabbusli byudjet: Bo'jay mahallasidagi ichki ko'chalar asfaltlashdi

□ Rishton tumanida tashabbusli byudjet asosida olib borilayotgan ishlar hududlarning ijtimoiy va iqtisodiy holatini yanada yaxshilashga xizmat qilyapti. Mazkur loyihada o'z tashabbuslari bilan faol qatnashgan mahallalardagi yo'l, ichimlik suv, elektr ta'minoti bilan bog'liq muammolar bosqichma-bosqich o'z yechimini topmoqda.

✿ «Bo'jay» mahalla fuqarolar yig'ini aholisi ham mazkur loyihada faol ishtirok etib, ko'plab tashabbuslarining g'oliblar qatoridan o'rın olishiga erishishdi. Hududdagi aholini uzoq yillardan beri ichki yo'lllardagi noqulayliklar qiy nab kelardi. Bu esa aholining haqli e'tiroziga sabab bo'lardi. Ushbu muammoga esa tashabbusli byudjet jarayoni yechim bo'lmoqda.

???? Mahalla aholisining ichki ko'chalarni asfalbtashtirish yuzasidan ilgari surilgan tashabbusni amalga oshirish uchun mablag' ajratilib, Bo'jay MFY hududidagi ko'chalarda asfalbtash ishlari olib borildi. Ushbu jarayon mahalla ahli uchun haqiqiy bayramga aylandi.

2024-11-11 08:08:09